

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI BOLALARNING TARBIYALANGANLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISHGA DOIR KASBIY TAYYORLASHNING ILMIY–NAZARIY ASOSLARI

Abdullajonova Guli Akmaljon qizi

Andijon davlat pedagogika insituti maktabgacha ta’lim

Magistrarura 2 – kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida ish olib boradigan tarbiyachi, shuningdek, pedagoglarni bolalarni diagnostika qilishdagi ahamiyati hamda tarbiyachilik kasbiga tayyorlashning ilmiy-nazariy tomonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar : Maktabgacha ta’lim, bolalar rivojlanish xaritasi, davlat talablari, rivojlanish sohasi, sensomotorika.

Maktabgacha ta’lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon.

Shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim – tarbiya o‘chog‘idir. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va rivojlanish sohalariga e’tibor qaratish kerak.

Rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;

Rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar;

Maktabgacha ta’lim tizimi tarixiga nazar tashlansa 2000 – yillarga qadar bolalarni bog‘chalarda ushlab turish bo‘lgan. 2000 – yildan boshlab “Uchinchi ming yillikni bolasi” davlat tayanch dasturi ishlab chiqildi. Bolalar asta sekinlik bilan aqliy salohiyati shu bilan birga tarbiyasi, ongi o‘sa boshladi. 2010 – yilga kelib, “Uchinchi ming yillikni bolasi” davlat tayanch dasturini mukammalashtirilib “Bolajon tayanch dasturi” ishlab chiqildi. Bu dasturda 3 yoshlilar bilan 6 – 7 yoshli bolalarga bir xilda mashg‘ulotlar berilgan bo‘lib, mashg‘ulotlar murakabligi bilan farqlangan. 2018 – yil 31 – dekabrda bolajon tayanch dasturini yanada takomilashtirib “Ilk qadam” tayanch dasturi ishlab chiqildi. “Ilk qadam” tayanch dasturida bolalarni yosh hususiyatlari alohida qilib berilgan. Tarbiyachi bolalarni diagnoslashda bu juda qulaylik yaratadi. Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni hozirgi kunda 3 – yoshdan qabul qilib olinmoqda. Har bir yoshdagi bolalar uchun rivojlanish xaritasi ishlab chiqilgan, Shu orqali diagnostika qilib boriladi. Bolalar rivojlanish xaritasini to‘ldirish 3 bosqichda amalga oshiriladi. 1) Dastlabgi o‘quv yili boshida. Sentabrni to‘rtinchi haftasida, yoki

oktabrni birinchi – ikkinchi haftalarida.2) Oraliq – o‘quv yili o‘rtasida. Fevral oyining ikkinchi – uchinchi haftalarida. 3)Yakuniy – o‘quv yili yakunida. May oyining so‘nggi haftasida. Tarbiyachi bolalarni rivojlanish xaritasini diagnostika qilayotganda ‘Pedagog izohi’ ga eslatma yozib borishi lozim. Bolalarni diagnostika qilishda 3ta kuzatish usuli orqali belgilanadi. K – kamdan kam kuzatiladi yoki kuzatilmaydi. B – ba’zida kuzatiladi. D – doimiy kuzatiladi. Bu xaritada 3 – 7 yoshlik bolalar 5 ta rivojlanish sohasi bo‘yicha qanday rivojlanib borishlari diagnostika qilib kuzatib boriladi va yuqoridagi usullar orqali belgilanadi. 5 ta rivojlanish sohasini birinchi kichik sohasi jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakillantirish, ikkinchi kichik sohasi ijtimoiy - hissiy rivojlanish, uchinchi kichik sohasi nutq, muloqat, o‘qish, yozish malakalari, to‘rtinchi kichik sohasi bilish jarayonlarini rivojlanishi, beshinchi kichik sohasi ijodiy rivojlanish. Masalan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining birinchi kichik sohasi jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakillantirish, sohasi o‘z navbatida 4ta kichik sohaga bo‘linadi. 1) Yirik motorika, 2) Mayda motorika, 3) Sensomotorika, 4) Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

“Kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi;”ⁱ

Yirik motorikada bolalar jismoniy harakatlarni erkin, tarbiyachi ko‘rsatganday qilib bajara oladilar. Bu bolani umurtqa fogsiz to‘g‘ri rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mayda motorikada bola barmoqlari yordamida aqliy salohiyatini, ong ostini, psixologiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Sensomotorika bolada sezgi o‘rganlarini rivojlantiradi.

Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlikda sog‘lom yashash, xavfsizlik qonun qoidalariga rioya qilish o‘rgatiladi.

Bola shaxsini diagnostika qilayotganda “ Bola meni” ga alohida e’tibor qaratish zarur. Tarbiyachi va pedagoglarga juda ham ma’suliyatli, sinchikov, udaburon, talabchan bo‘lish talab qilinadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o‘qituvchi va tarbiyachilar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrik nutqida “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”,ⁱ – deb ta’kidlagan. ⁱⁱ

Dar haqiqat bo‘lajak tarbiyachilar ilmi, o‘zini kasbini sevsa, bolalarni yaxshi ko‘rib, mehribanlik bilan ishlay olsa, har bir ishni sitqidildan bajarsa, ishda unumdorlik oshadi.

¹ <https://www.sbtsue.uz>

Tarbiyachi kasbi qiyin, masulyatli kasblar qatoriga kiradi. Zo‘rg‘a gapirib, yura yotgan bolani kelajakda buyuk komil inson bo‘lishi uchun harakat qiladi. Bunda ularga sabr ma’naviyatli o‘zi komilik darajasiga erisha olgan pedagog bo‘lishi lozim. Oshandagina kasbni sevishi bolalarni erkin shug‘ulantita olishi shu bilan birga diagnostika qilib kamchiliklarni bartaraf qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining 802 – qarori.
- 2) "Ilk qadam" tayanch dasturi.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Bolalar rivojlanish xaritasi".
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayevning"O‘qtuvchilar va murabiyalar kuni munosabati bilan yōlagan nutqidan" [https\\www.standart.uz](https://www.standart.uz)

ⁱ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining 802 – qarori.

ⁱⁱ [https\\www.standart.uz](https://www.standart.uz)